

**“Navoiy KMK” aksiyadorlik jamiyati huzuridagi Jamoatchilik kengashi tomonidan
2026-yilning birinchi yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
H I S O B O T I**

Muhtaram Yurtboshimiz rahbarligida barcha sohalarda keng ko‘lamli islohotlar davom etmoqda. Birgina, keyingi yillarda Yangi O‘zbekistonda axborot va ochiqlik siyosati yo‘nalishida olib borilgan ishlar bunga yaqqol misoldir. Bu boradagi yutuqlar bugun xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholanmoqda.

Jumladan, qabul qilingan qator huquqiy hujjatlar xalqimizning axborotni erkin izlash va olishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlash, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirish, ular faoliyatini baholashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmoni qabul qilingani Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Farmon ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning 2023-yil 8-maydagi “Jamoatchilik kengashini tuzish to‘g‘risida”gi 233-sonli buyrug‘i qabul qilinib, **15 nafar** a‘zolaridan Kengash tarkibi, Nizomi, Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda Ochiqlikni ta‘minlash bo‘yicha ekspert guruhlar tarkibi tasdiqlandi.

E‘tiborli jihati, Jamoatchilik kengashi a‘zolarining yarmidan ko‘pi nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati instituti vakillari ekani ishni samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Jamoatchilik kengashining **10 ta** banddan iborat 2026-yilga mo‘ljallangan ish rejasi ishlab chiqilib, Kengash o‘z faoliyatini unga muvofiq amalga oshirishga erishdi. Jumladan, Kengash a‘zolarining 2026-yilning birinchi yarim yilligida **6 marotaba** jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari, korrupsion holatlar oldini olish mavzusida onlayn-muloqotlar, **26 marotaba** turli mavzulardagi tadbirlarda (*jumladan, 15 marotaba ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, 3 marotaba gender tenglikni ta‘minlash tadbirlari, 3 marotaba yoshlar siyosatiga doir tadbirlar va 5 marotaba boshqa muhim yo‘nalishlardagi tadbirlar*) ishtirok etishi va 2026-yilga mo‘ljallangan rejadagi tadbirlarning o‘z vaqtida o‘tkazilishi ta‘minlandi.

Kompalens xizmati tomonidan NKMK ishchi-xodimlari ishtirokida bodinmalarda korrupsiya va uning salbiy oqibatlari, unga qarshi kurashish, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xatarlarning oldini olish bo‘yicha tegishli targ‘ibot-tushuntirish ishlari olib borildi. Jumladan, hisobot davrida NKMK ishchi-xodimlari o‘rtasida **32 marotaba** huquqiy targ‘ibot va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Targ‘ibot tadbirlarida **2 856 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta‘minlandi.

Bundan tashqari, tegishli bo‘linmalarda ichki idoraviy va qarorlarda ishchi-xodimlari manfaatlari va fikri hisobga olingani, jamoada sog‘lom ishchanlik muhiti, yuksak huquqiy madaniyat va ahloqiylikni ta‘minlash, ishchi-xodimlar o‘rtasida Vatanga sadoqat ruhi va qonunlarga bo‘lgan hurmatni oshirishga qaratilgan nazorat, targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi.

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
huzuridagi Jamoatchilik kengash,
2026-yil 1-iyul.**